

**SUV XO'JALIGIDA XARAJATLAR HISABI VA TANNARXINI  
KALKULYATSIYA QILISHNING YO'LLARI**

**Zokirjonova Sarvinoz Shokirjon qizi**

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy Tadqiqot Universiteti, "Iqtisodiyot" fakulteti, "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Temirxanova Mo'tabar Jurayevna**

*Ilmiy rahbar: "Iqtisodiyot" fanlari fan doktori, dotsent*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada suv xo`jaligida xarajatlar hisobini yuritish hamda tannarx kalkulyatsiyasini amalga oshirishning ayrim jihatlari muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** Suv xo`jligi, kalkulyatsiya, tannarx, xarajat, schyot.

Har bir sohada xarajatlar hisobini yuritish hamda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilib borish muhim hisoblanadi. Shu qatorda suv xo`jaligida ham ushbu amaliyotni olib borish dolzarbdir. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida suv ta'minoti sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda xarajatlarni kamaytirish va tannarxni pasaytirish hozirgi kunda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Iqtisodchi olim J.E.Badmajapova o'z ilmiy tadqiqotida suv ta'minoti korxonasi nuqtai nazaridan tarif o'z ichiga tannarx va foydani olishini ta'kidlagan. Uning ilmiy talqiniga binoan foyda rentabellikni ta'minlashga olib keladi hamda boshqa tadbirkorlik subyektlari singari suv ta'minoti xizmatlarini ko'rsatuvchilarning ham asosiy maqsadi maksimal foyda olishdir [3].

Y.V.Lipatova o'z ilmiy tadqiqotida ta'kidlaganidek, suv sarfi, yo'qotilishi, xarajatlarining kamayishiga aholi suv iste'moli boyicha suv hisoblagichlardan foydalanishi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Uning tadqiqotiga binoan suv ta'minoti tizimining xarajatlari, asosan, suvni yetkazib berish va taqsimlash tizimi inshootlarini qurish va ekspluatatsiya qilishga to'g'ri keladi, shuningdek, ushbu xarajatlar kommunal suv ta'minoti tizimidagi xarajatlarning 70 %ini tashkil etadi [5].


**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmati korxonalari faoliyati tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, soha suvni olish, tozalash, yetkazib berish, ifoslangan suvni yig'ish, uni tozalash inshootlariga yetkazish va suv havzalariga tozalangan holda qaytarish bilan bog'liq funksiyalarni bajaruvchi yopiq tizim ko'rinishini olgan.

Yangi tartibga muvofiq, suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflarni o'rnatilgan tartibda shakllantirish va belgilashda iste'molchilar uchun ko'rsatiladigan xizmatlar tannarxini to'liq qoplash nazarda tutiladi, shuningdek, suv

# "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

ta'minoti va oqova suv tashkilotlarini rivojlantirish hamda modernizasiya qilish xarajatlari hisobga olinadi. Fikrimizcha, suv ta'minoti korxonalarida xizmatlar tannarxini kalkulyatsiyalashning xususiyatlari quyidagilardan iborat (1-rasm):



## 1-rasm. Suv ta'minoti korxonalarida xizmatlar tannarxini kalkulyatsiyalashning xususiyatlari

Suv ta'minoti korxonalarida energiya iste'molining yuqori darajada ekanligi, eskirgan tarmoqlarning o'z vaqtida modernizasiya qilinmaganligi, moddiy rag'batlantirish darajasi pastligi sabab sohada malakali mutaxassislar va ishchilar yetishmasligi, axborot- kommunikatsiya texnologiyalari izchil joriy qilinmaganligi, moddiy texnika bazasi rivojlanmaganligi tufayli tizimda muammolar kelib chiqmoqda.

Fikrimizcha, har bir obyekt va jarayon bo'yicha xarajatlarning alohida jamlanishi orqali har bir jarayon bo'yicha xizmat tannarxini aniqlash mumkin. Bunday hisobni yuritish uchun biz tomonimizdan maxsus shakl (1-jadval) tavsiya etiladi. Mazkur shakl ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlari bo'yicha ob'ektlar va jarayonlar kesimida hisobga olish imkonini yaratadi. Nazarimizda suv ta'minoti korxonalarida xarajatlarni hisoblash va asoslanmagan yo'qotishlarni aniqlash maqsadida muntazam tekshiruvlarni o'tkazish katta xarajatlarni talab etgani bois murakkab jarayon hisoblanadi. Shuningdek, bu jarayonga ixtisoslashtirilgan korxonalarini jalb etish qo'shimcha xarajatlarni talab etadi.

### 1-jadval

**Ishlab chiqarish xarajatlarini obyektlar va ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari bo'yicha hisobga olish**

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:  
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

<b>Nº</b>	<b>Obyekt nomi</b>	<b>Texnologik jarayonlar</b>	<b>Moddiy xarajatlari</b>	<b>Ish haqisiga xarajatlari</b>	<b>Ijtimoiy sug'urt ajratmamalari</b>	<b>Amortisatsiya ajratmamalari</b>	<b>Zatsiya hqa xarajatlar</b>	<b>Bosh xarajatla i:</b>	<b>Jami</b>
1.	1- obyekt	Suvni olish	1216418	418816,9	50258,03	66715,548	52504,14	1804712,71	
		Suvni tozalash	810945,4	279211,26	33505,35	44477,032	35002,76	1203141,81	
		Yetkazib berish	2027364	698028,16	83763,38	111192,58	87506,9	3007854,52	
2.	2- obyekt	Suvni olish	912313,5	314112,67	37693,52	50036,661	39378,11	1353534,46	
		Suvni tozalash	608209	209408,45	25129,01	33357,774	26252,07	902356,306	
		Yetkazib berish	1520523	523521,12	62822,54	83394,435	65630,18	2255890,77	
3.	3- obyekt	Suvni olish	608209,2	209408,45	25129,01	33357,774	26252,07	902356,506	
		Suvni tozalash	405472,8	139605,63	16752,68	22238,516	17501,38	601571,004	
		Yetkazib berish	1013682	349014,08	41881,69	55596,29	43753,45	1503927,51	
4.	4- obyekt	Suvni olish	304104,6	104704,22	12564,51	16678,887	13126,04	451178,253	
		Suvni tozalash	202736,4	69802,816	8376,338	11119,258	8750,69	300785,502	
		Yetkazib berish	506841	174507,04	20940,85	27798,145	21876,73	751963,755	
<b>Jami:</b>		1013681	3490140,8	418816,9	555962,9	437534,5	14934103,3		

Suv ta'minoti korxonalari xizmat ko'rsatish jarayonida yer usti va yer osti suv manbalaridan foydalanadi. Bunday holatda ishlab chiqarish jarayoni bir-biridan obyektlar bo'yicha farq qiladi. Bizning fikrimizcha, obyektlar bo'yicha moddiy xarajatlarni ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bo'yicha alohida hisobga olish xarajatlarni rejalashtirish, nazoratga olish, ularning zaxirasini yaratish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihibalarini rivojlantirish imkonini beradi. Biz tomonimizdan moddiy xarajatlarni obyektlar va ishlab chiqarishning texnologik

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:  
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

jarayonlari bo'yicha hisobga olish uchun maxsus shakl tavsiya etilmoqda (2-jadval).

2-jadval

**Moddiy xarajatlarni obyektlar va ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari bo'yicha hisobga olish**

M	J	ate-	rial	egri-	xara-	jatlari	Yoqilg'i	Spiral	Reaktiv	Alyu - mini	Xlor	Ovamateriali	Texnologik jarayonlar	Obyekt nomi	No
5	1	6	21641	8			3	6	332	449	7966	3872	12620	Suvni olish	1. 1-obyekt
3	8	7	10945				7	221	299	5310	2581	8413	Suvni tozalash		
0	2	94	02736	3	7	21033	748	554	1327	64537	2103	2103	Yetkazib berish		
9	9	2	12313				249	337	5974	2904	9465	Suvni olish	2. 2-obyekt		
2	6	8	08209				17668	11778	583481	1936	6310	Suvni tozalash			
2	1	0	52052	5	7	15775	415	561	9957	4840	1577	Yetkazib berish			
2	6	8	08209				875222	145870	194493	3983	6310	Suvni olish	3. 3-obyekt		
1	4	8	05472				583481	29447	39262	1327	1290	4206	Suvni tozalash		
4	1	7	01368	6	7	10516	4104	374	6638	3226	3155	3155	Yetkazib berish		
6	3	4	04104				291740	972469	19631	187	1613	5258	Suvni olish	4. 4-obyekt	
0	2	9	02736				194493	486234	9815	138	3319	2103	Suvni tozalash		
7	5	3	06840				486234	138	9815	187	1613	5258	Yetkazib berish		

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:  
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

Jami:	1051	3226	6638	3744	277	19631	972469	4	1
	6	7	6	1	4	4	70	49341	03

Har bir texnologik jarayon kalkulyasiyasida material, yoqilg'i, energiya va ushbu jarayon bilan bog'liq boshqa xarajatlar aks ettirilishi lozim. Buning uchun suv ta'minoti korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining texnologik jarayonlar bo'yicha hisobini yuritish uchun 2011-“Suvni olish jarayonidagi ishlab chiqarish xarajatlari”, 2012-“Suvni tozalash jarayonidagi ishlab chiqarish xarajatlari”, 2012-“Suvni yetkazib berish jarayonidagi ishlab chiqarish xarajatlari” ishchi schotlarini kiritish lozim.

Suv ta'minoti korxonalarida kalkulyatsiya metodikasining o'zgarishi quyidagilarga imkon beradi:

- har bir texnologik jarayon tannarxini o'tgan yillar bilan solishtirish;
- ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir etgan omillarni o'rganish;
- bir kub metr suvning haqiqiy tannarxini aniqlash;
- suv ta'minoti korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyati nazorati samaradorligini optimallashtirish.

**Xulosa:**

Biz, energiya iste'molini kamaytirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- ichki isrofgarchilik borasida qat'iy choralarini qo'llash lozim;
- xususiy va ko'p qavatli uylarda suv isrofining haqiqiy holatini o'rganish kerak;
- ko'p suv ishlatiladigan binolarda suvdan foydalanish holatini o'rganish lozim;
- suv ta'minoti tizimida yengil va og'ir jazo choralarini ishlab chiqish kerak;
- qulay va ishonchli ma'lumotlarni olishga asoslangan suv hisoblagichlarning standartlashtirilgan turini yaratish maqsadga muvofiqdir;
- suv hisoblagichlarni o'rnatish jarayonini tezlashtirish kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4040-sonli qarori, 2018 yil 30 noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6074-sonli farmoni, 2020 yil 25 sentabr.

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:  
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

3. Gembik Yu.S. Suv ta'minoti va kanalizatsiya sohasida tartibga solinadigan tariflarni hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalarning ayrim qoidalarini amaliy qo'llashning asosiy muammolari. UNIVERSUM: iqtisodiyot va huquq. № 9 (42), 2017 y., b. 3.
4. Gembik Yu.S., Gorodkova S.A. Suv ta'minoti va kanalizatsiya sohasida mehnat xarajatlari va xizmatlarni sotish hajmlarini aniqlashning qonunchilik mexanizmini amaliy qo'llash muammolari. NSUE axborotnomasi. № 4, 2017 y. 15.
5. Lipatova E.V. Suv ta'minoti va kanalizatsiya korxonalarida boshqaruv hisobini tashkil etish va xarajatlarni shakllantirish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - Saratov, 2010. - 24 p.
6. Rashidov, D. (2023). Davlat-xususiy sheriklikda tavakkalchilik turlari. Scienceweb academic papers collection.

